

Mavzu: Bozor sharoitida monetar siyosatni optimallashtirish

Reja:

Kirish

Bozor munosabatlarini shakllanishi

Asosiy qism

1.O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos yo'li va tamoyili

2.Monetar siyosat haqida tushuncha

3. 2012 –yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan monetar siyosatni yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruza tavsilotlari (Islom Karimov)

4. Monetar siyosatni optimallashtirish usullari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Milliy davlat mustaqilligini qo`lga kiritgan O`zbekiston bozor iqtisodiyoti yo`lini tanladi. Sho`rolar davridagi sotsialistik tizimning iqtisodiy asosini tashkil etgan rejalashtiruvchi siyosatdan voz kechdi. Xo`sh, bozor iqtisodiyotining o`zi nimani tushunishimiz kerak?

Bozor iqtisodiyotining asosida tovar-pul munosabatlari yotadi va ana shu munosabatlarga xos iqtisodiy qonunlar harakat qiladi. Bozor iqtisodiyoti jamiyatning barcha a'zolarini ishlab chiqarish va iste'mol orqali o`zaro raqobatning ishtirokchilariga aylantiradi.

Shu boisdan bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish muttasil takomillashib boradi, mahsulotning sifat darajasi yaxshilanadi, uning miqdori ko`payadi va jamiyat taraqqiyoti tezlashadi.

Tarixan bozor munosabatlarining ikki turi mavjud:

1.Tartibsiz, o`zi bo`larchilik asosida, stixiyali rivojlanadigan bozor iqtisodiyoti munosabatidir. U tarqoq, maqsadi va harakati oldindan kelishilmagan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o`rtasidagi oldi-berdi munosabatlariga asoslanadi. 2.Tartibga solinadigan, boshqariladigan bozor iqtisodiyoti munosabatidir.

O`zbekiston o`z taraqqiyot yolining asosi qilib ikkinchi yo`lni — davlat tomonidan tartibga solib boriladigan va boshqariladigan bozor iqtisodiyoti yo`lini tanladi. Bunda jamiyat davlat orqali bozorga narx, soliq, foiz, foyda, renta, subsidiya kabi iqtisodiy

vositalar bilan ma'lum bir yo`nalish beradi va ongli ta'sir ko`rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining o`ziga xos sifat belgilari va xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tovar ishlab chiqaruvchi iqtisodiy jihatdan erkin bo`ladi, ya'ni bozor uchun mahsulot ishlab chiqarayotgan korxona yoki shaxs erkin va mustaqil faoliyat ko`rsatadi.

2. Tovar ishlab chiqaruvchi mulk egasi bo`ladi yoki ijara mulkiga ega bo`ladi va uni o`z bilganicha ishlatadi, unga hech kim monelik qila olmaydi, buyruq bera olmaydi.

3. Tovar ishlab chiqaruvchi o`zi ishlab chiqargan mahsulotining egasi, xo`jayinidir. Shu bois, o`z mahsulotini xohlasa sotadi, xohlasa sotmaydi yoki u xohlasa o`z tovarini boshqa bir tashkilot, korxona yo biron bir shaxsga sovg`a qilib tekinga hadya qilishi ham mumkin.

4. Bozorga chiqarilgan tovarni oldi-sotdi qilish sotuvchi bilan xaridoming erkin va ixtiyoriy munosabatiga asoslanadi.

5. Bozor iqtisodiyoti monopolizmni, ya'ni yakka hukmronlikni inkor etadi, tovar ishlab chiqaruvchilarning bozordagi erkin raqobatini taqozo etadi.

6. Bozorda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste'molchi o`z shartini qo`yadi, chunki pul uning qo`lida bo`ladi. Tovar ishlab chiqaruvchi iste'molchining talabi, ehtiyojini qondiradigan mahsulot ishlab chiqargan taqdirdagina daromad topa oladi.

7. Ishlab chiqarilgan tovarga sarf qilinadigan mehnat xaridorning mahsulotga talabi darajasi miqdorida bo'lishi lozim. Aks holda ishlab chiqarilgan tovar bozorda kasodga uchraydi.

8. Bozorda qanday tovarga talab oshib borsa, o'sha mahsulotni ishlab chiqarish foyda keltiradi.

9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqaruvchilar jamiyat a'zolari o'z daromadlari miqdoriga qarab tabaqalanadilar.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari mamlakatimiz uchun yangilik emas. Uzoq yillar davomida qadimdan ajdodlarimiz jahon hamjamiyatining bir bo'lagi va tarkibiy qismi sifatida bozor iqtisodiyoti sharoitida yashab kelganlar. Tarixiy yozma manbalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda o'rta Osiyo xalqlari bundan ming yillar ilgari ham dunyoning deyarli barcha mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatganlar. Bu borada «Buyuk ipak yo'li» yorqin dalil bo'la oladi.

1. O`zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining o`ziga xos yo`li va tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tish qonuniyatlari, albatta, umumiydir. Biroq, ana shu umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanib borayotgan har bir mamlakat, u xoh Turkiya yoki Amerika Qo`shma Shtatlari bo`lsin, xoh Janubiy Koreya yoki Yaponiya bo`lsin, ularning har biri o`zining tarixiy-taraqqiyot an'analari, milliy o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o`z yo`li, o`z modelini ishlab chiqishi va unga amal qilishi lozim. O`zbekiston ham ana shu umumiy dastur va umumiy qonuniyat mezonlari asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o`tishga imkoniyat beradigan o`z yo`lini tanlab oldi.

Bu yo`lning asosiy tamoyillari va qoidalari I.Karimovning «O'zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston — bozor munosabatlariga o`tishning o`ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» nomli asarlarida, mamlakat parlamentida qilgan ma'ruza va nutqlarida bayon qilib berilgan.

O`zbekistonning bozor munosabatlariga o`tish yo`liga doir Prezident I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil nafaqat mamlakatimizda, shuningdek jahon jamoatchiligi tomonidan ma'qullandi. Eng muhimi, xalqimizning o`zi besh tamoyilni qabul qildi va qo`llab-quvvatladi.

Birinchi tamoyil.

Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni nazorat qilish, unga tazyiq o'tkazish darajasiga ko'tarilmasligi zarur. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlariiii mafkuradan xoli qilish zarur. Bir qancha mamlakatlarning achchiq tajribasi ko'rsatadiki, iqtisodiyot siyosiy manfaatlarga bo'ysundirilganda u barbod bo'ladi. Iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan ichki qonunlar asosida rivojlanmog'i zarur. Iqtisodiyot,— deb ta'kidlaydi I.Karimov, —siyosatga nisbatan ustuvor mavqaida bo'lishi lozim.

Ikkinchi tamoyil.

Milliy iqtisodni shakllantirish, mustaqillikni iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni himoya qilish, jahon xo'jaligi bilan integratsiyaga erishish va xalq manfaatini yuzaga chiqarish uchun iqtisodiyot davlat tomonidan tartibga solib turilishi lozim.

Jahon tajribasi o'tish davrida iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solib turish zarurligini ko'rsatdi. Aks holda iqtisodiyot tanazzulga uchrashi mumkin. «Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat bosh islohotchisi boiishi, iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning hamma sohalarini o'zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishi zarur»,— deb ta'kidlaydi I.Karimov.

Davlat ixtiyoridagi iqtisodiy mexanizmni yo'qotib, o'rniga birdaniga bozor mexanizmini o'rnatish mumkin emas. Shu bois, O'zbekistonda davlat tizimi birdaniga bo'sh qo'yib yuborilmadi, uning hukmdorligi saqlab qolindi.

Uchinchi tamoyil.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda qonun va qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim.

Bozor iqtisodiyoti qonunchilikka tayanadi. Uning qoidalari, mezonlari ming yillar davomida yaratilgan. Bozor iqtisodiyoti huquqiy normalar va qoidalarga tayanishi bilan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan farq qiladi. Yaxlit bozor tizimini vujudga keltirish uchun uning qonunchilik tizimi yaratilishi, ularga rioya qilinishi shart. Qonunchilik buzilgan joyda bozor iqtisodiyotini amalga oshirib bo'lmaydi.

Qonunning ustuvorligi huquqiy davlat barpo etish zaruriyatidan ham kelib chiqadi. Qonun oldida hamma barobardir. Barcha ijtimoiy, va iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo'ladi

To'rtinchi tamoyil.

Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish zarur.

Buning zaruriyati iqtisodiy ahvol bilan bog'liq. Birinchidan, O'zbekistonda aholining deyarli to'rtidan uch qismi Sho'rolar hokimiyatining so'nggi yillarida ham o'zlarining minimal ehtiyojlarini qondirishga qodir bo'lmay, davlat madadiga muhtoj edi. Ikkinchidan, aholi tarkibida davlat va jamiyat o'z himoyasiga olishi zarur bo'lgan bolalar, o'smirlar, qariyalar ko'pchilikni tashkil etadi. Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida dastlab aholi ijtimoiy jihatdan tabaqalanadi va himoyaga muhtoj

boʻlganlar qatlami kengayadi. Shu boisdan, iqtisodiy islohotlar jarayonida avval odamlarni, birinchi navbatda, himoyaga muhtoj qatlamni oldindan kuchli darajada ijtimoiy himoyalash choralarini koʻrish zarurligi inobatga olindi. Ijtimoiy siyosat inflyatsiya keltirib chiqargan qimmatchilik sharoitida aholi xarid qobiliyatini himoya qilishni ham koʻzda tutadi.

Beshinchi tamoyil.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtish evolyutsion yoʻl bilan, puxta oʻylab bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim.

Buning sababi shundaki, bozor iqtisodiyoti murakkab tizim, uni birdan yaratib boʻlmaydi. Mamlakat aholisining mustamlakachilik tuzumi sharoitida tarkib topib shakllangan hayotiy qarashlari va koʻnikmalarini darhol, birdaniga bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslab oʻzgartirib boʻlmaydi. ChunM, mustamlakachilik tuzumi davrida, odamlarning ongi, shuuri va psixologiyasiga zoʻrlik yoʻli bilan singdirilgan tobelik, qaramlik, qullik, befarqlik, boqibegʻamlilik, tayyorga ayyorlik kabi qarashlarni bir zarba bilan yoʻq qilish va aksincha bozor iqtisodiyoti va mustaqillik sharoiti talablari asosida egalik, yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik, faollik kabi olijanob fazilatlarni ham darhol shakllantirishning iloji yoʻq. Buning uchun albatta vaqt, sabr-toqat kerak. Bular bosqichma-bosqich yaratiladi. Bu tamoyil jamiyat a'zolaridan bizga oʻtmishdan meros boʻlib qolgan barcha ijobiy qadriyatlarga xayrixohlik bilan qarash va ularni asrab-avaylab rivojlantirish, sayqal berishni talab qiladi. Prezident I.Karimovning «yangi uy

qurmay turib, eskisini buzma» degan hikmatli soʻzi ham xuddi ana shu gʻoyaga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni tubdan isloh qilish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishda yuqorida bayoji etilgan beshta tamoyil birday muhim va hayotiy belgilovchi ahamiyatga egadir.

2.Monetar siyosat haqida tushuncha

Monetar siyosat- bu davlat tomonidan davlat milliy banki orqali muomalaga tushadigan pul massasini nazorat qilish boshqarish demakdir. Davlatni puliga boʻlgan talab, taklifini oʻzgartirish borasidagi siyosati. Shu siyosatni oʻtkazish orqali davlat iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

Monetar siyosatni turlari quyidagicha:

Siyosat	Harakat	Samara
- yuqori harid qobiliyatiga ega boʻlgan pullar.	- pul taklifini kamaytiradi.	-Deflyatsion
	Ustama foizlarni oshiradi.	-Inflyatsiya
-pul taklifini oshiradi. boʻlgan pullar.	-harid qobiliyati past	
Ustama foizlarni pasaytiradi.		

Monetar siyosatning asosiy yoʻnalishlari

Harakatdagi qonun va qoidalariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki moliyaviy yil boshlanishidan 30 kun oldin kelgusi yil uchun oʻzining pul-kredit va monetar

siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va bu haqda Oliy Majlisga axborot beradi.

Bundan tashqari, monetar siyosat matbuotda e'lon qilinadi.

Markaziy bankning pul-kredit va monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari iqtisodiy kon'yukturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlari, muomaladagi pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralari, valyuta va foiz siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda hukumat tomonidan keyingi yil uchun belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning prognoz parametrlaridan kelib chiqqan holda tayyorlanadi.

Monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari samarali bo'lishini ta'minlash uchun avvalombor, albatta o'tgan yillardagi mamlakatdagi iqtisodiy kon'yunktura har tomonlama chuqur tahlil qilinmog'i zarur. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ya'ni ichki mahsulotning tarkibi, o'sish yoki kamayish dinamikasi, ularning sabablari o'rganiladi. Yalpi ichki mahsulotning qishloq xo'jaligidagi, sanoat, aholiga pullik xizmat ko'rsatish, investitsiya va qurilish sohalaridagi o'zgarishlar va ularning sabablari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan hisoblangan inflyatsiya va narxlarning o'sish darajalari, tendentsiyasi va sabalari to'liq o'rganiladi.

Bizga ma'lumki, hozirgi zamon iqtisodiy globallashuv sharoitida alohida olingan mamlakat iqtisodiyotini tashqi mamlakatlardan bilan iqtisodiy aloqalarisiz tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, monetar siyosatning asosiy yo'nalishlarini

aniqlashda mamlakatning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarining ko'lamini, dinamikasi, tashqi savdo aylanmalari, to'lov va hisob-kitob balanslarining holati tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, kelgusi yilga samarali pul-kredit siyosatini amalga oshirishni belgilab olish uchun, o'tgan yildagi Markaziy bankning monetar siyosati, uning qaysi instrumentlari samaraliroq foydalanilganligi, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar to'liq talqin qilinmogi va ulardan ijobiy foydalanmog'i tavsiya etiladi.

Bunda pul-kredit siyosatining bevosita instrumentlari bilan bir qatorda uning bilvosita instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari, o'tgan davrdagi monetizatsiya darajasi taxmini va eng asosiysi pul bozorini holati, ya'ni foiz stavkasining dinamikasi va valyuta siyosati tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, pul-kredit, monetar siyosatning samarali pirovard natijasida mamlakat pul birligining barqarorlik darajasi bilan belgilanadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda samarali monetar siyosat yo'nalishlarini aniqlashda mamlakat bank tizimi barqarorligi tahlili ham muhim o'rin tutadi.

Yuqorida qayd etilgan masalalar aniq va to'liq chuqur tahlil qilinib, sabab va oqibatlar har tomonlama o'rganilgandan keyin Markaziy bank hukumat tomonidan keyingi yil uchun prognoz hilingan yalpi ichki mahsulot hajmi va uning real o'sishi, YaIM

deflyatorining miqdoriy ko'rsatkichlari va inflyatsiya darajasi hamda tashqi savdo aylanmasi qoldig'ining ijobiy bo'lishi va davlat byudjeti ko'rsatkichlari kabi makroiqtisodiy parametrlaridan kelib chiqqan holda o'zining pul-kredit, monetar siyosatini ishlab chiqadi.

Bizning nazarimizda, eng muhim masala shundan iboratki, pul-kredit, monetar siyosatni belgilashda Markaziy bank hukumat tomonidan prognozlashtirilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi bilan muomaladagi pul massasi o'zgarishi o'rtasidagi mutanosiblik darajasini aniqlash va doimiy ravishda unga erishishdan iborat bo'lmog'i lozim. Chunki xalq xo'jaligining har bir tarmog'ida ma'lum darajada o'sishni ta'minlash albatta qo'shimcha pul mablag'larini talab qiladi. Demak, doimo yalpi ichki mahsulot o'sishi bilan pul massasi o'sishi o'rtasida qandaydir mutanosiblik bo'lishni talab qiladi.

Shunday qilib, monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari mamlakat iqtisodiyotiga pul-kredit vositalari orqali ta'sir qilish natijasida mamlakat pul birligi barqarorligini ta'minlovchi muhim hujjatdir.

**3. 2012 –yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy
rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan
monetar siyosatni yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruza
tavsiyotlari (Islom Karimov)**

Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi.

Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012-yil yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir.

2010-yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo'lgan bo'lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga yetdi.

Banklar faoliyatida, o'tgan yillardagi kabi, investitsiya faoliyatiga katta e'tibor qaratildi.

2012-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2011-yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlar ekani, ayniqsa, e'tiborga molik.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining o'tgan yil natijalarini baholaganda, Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasi rahbari Veronika Bakalu xonimning ushbu missiyaning O'zbekistonda 2012-yil noyabr-dekabr oylaridagi ishi natijalari bo'yicha bildirgan fikrlarini keltirish o'rinli, deb bilaman. Uning ta'kidlashicha, "O'zbekiston iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan o'smoqda. Soliq-byudjet va tashqi faoliyat sohalaridagi

mustahkam pozitsiya, bank tizimining barqarorligi, davlat qarzining kamligi va tashqaridan qarz olishga ehtiyotkorlik bilan yondashish mamlakatni global inqirozning salbiy oqibatlaridan himoya qildi”.

O‘ylaymanki, bunday xolisona baho ko‘p narsadan dalolat beradi.

2012-yilda mamlakatimizning yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘rishini ta’kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo‘naltirilgan kapital mablag‘lar, investitsiyalar tobora o‘tib borayotganida, bu ko‘rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur.

O‘tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko‘rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o‘tdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig‘ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko‘prog‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.

E’tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirildi.

Shu borada faqat o‘tgan yilning o‘zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo‘lgan kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirilib, 205 ta yirik investitsiya ob’ekti qurib bitkazildi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, 2012-yilda Surg‘il koni bazasida hatto dunyo mezonlari bo‘yicha ham noyob bo‘lgan,

qiymati 25 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan Ustyurt gaz-kimyo kompleksi qurilishi boshlandi. Mazkur ob'ektning qurilishi 2016-yilda nihoyasiga yetkaziladi va bu korxona 4 milliard 500 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 400 ming tonna polietilen va 100 ming tonna polipropilen ishlab chiqarish imkonini beradi.

2012-yilda mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish hisobidan qariyb 1 millionta yangi ish o'zni tashkil etildi. Bu ish o'rinlarining 62 foizga yaqini qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 485 ming kishi, kasanachilikning barcha shakllarini kengaytirish hisobidan esa 218 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Ushbu ko'rsatkichlarni mamnuniyat bilan qayd etar ekanmiz, bu vazifa joriy va kelgusi yillarda ham ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarimizning markazida bo'lishi lozimligini barchamiz yaxshi anglaymiz, albatta.

O'zbekistonni 2013-yilda iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilar ekanmiz, biz, avvalo, o'tgan yillarda iqtisodiyotimizda erishilgan marralar, istiqbolga mo'ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, shuningdek, jahon bozoridagi real va kutilayotgan, prognoz qilinayotgan holatdan kelib chiqamiz.

Bugun shuni tan olish kerakki, hamon davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamda uning oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish

bo'yicha amalga oshirilgan inqirozga qarshi dasturlar va ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bu boradagi ahvol, afsuski, yaxshilanmayapti, ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha esa uning yomonlashish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Dunyoning ko'plab yetakchi mamlakatlarida davlat qarzi va milliy byudjetlar taqchilligi muammosi deyarli hal etilmasdan qolmoqda, real iqtisodiyotda ishlab chiqarish pasayib bormoqda, jahon bozorida xarid talabining kamayishi davom etmoqda, ishsizlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda, ijtimoiy keskinlik kuchaymoqda.

Kredit oluvchilarning to'lovga layoqatsizligi, hisob-kitob qilishga qurbi yetmayotgani moliya-bank tizimida jiddiy muammolar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Dunyoning eng yirik davlatlari markaziy banklari tomonidan real aktivlar bilan deyarli ta'minlanmagan pullarni chiqarish davom etayotgani, shuningdek, sun'iy moliyaviy vositalar – derivativlarning nazoratsiz chiqarilayotgani ko'plab nufuzli xalqaro tahlil markazlari va ekspertlarda jiddiy tashvish uyg'otmoqda.

Moliya va bank bozorini ortiqcha likvidlik bilan to'ldirish, bunday siyosatni davom ettirish ulkan spekulyativ "ko'piklar" hosil bo'lishi, zaxira valyutalari va milliy valyutalarning qadrsizlanishi, inflyatsiya darajasining o'sish xavfini tug'dirmoqda.

Tobora o'sib borayotgan bunday muammolar bugungi kunda global inqiroz keltirib chiqarayotgan chuqur jarayonlarni faqat eski vosita va prinsiplarni tuzatish bilan hal etib bo'lmashligidan darak bermoqda va avvalambor moliya va bank tizimining yangi tuzilmasini, uni nazorat qilish va tartibga solish mexanizmlarini ko'p tomonlama asosda ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Ana shunday murakkab sharoitda 2013-yil va yaqin kelajakda hamon davom etayotgan global inqirozning barcha xavf-xatar va oqibatlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ko'rsatadigan ta'sirini hisobga olish alohida prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Bugungi vaziyat o'tgan yillar mobaynida inqirozga qarshi kurashish borasida to'plagan tajribamizga suyanib, mamlakatimizni rivojlantirish, isloh etish va yangilash bo'yicha erishgan sur'atlarni boy bermaslik uchun mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etishni talab qilmoqda.

Ana shu vazifadan kelib chiqqan holda, 2013-yilda izchil yuqori o'sish sur'atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatdoshligini oshirish eng muhim ustuvor yo'nalishimizga aylanishi darkor.

Joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini 8 foizga, sanoatni 8,4 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investsiyalar hajmini 11 foizga, xizmat ko'rsatish sohasini qariyb 16 foizga oshirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushi 53 foizgacha o'sishini ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda.

Yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni ta‘minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirish oldimizga qo‘yilgan maqsadlarga erishishning asosiy manbai bo‘lishi darkor.

Qishloq xo‘jaligida paxta va g‘allaning barqaror hajmini saqlagan holda, kartoshkachilik, sabzavotchilik, uzumchilik va chorvachilikni jadal rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi.

2013-yilda mutanosib va barqaror davlat byudjetini shakllantirish maqsadida soliq ma‘murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash, butun soliq tizimini soddalashtirish va uning oshkoraligini ta‘minlash bo‘yicha tegishli tadbirlar ko‘zda tutilmoqda. Shularning hisobidan soliq yuki darajasining oshmasligi ta‘minlanib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan bu ko‘rsatkich 21,3 foizni tashkil etadi.

Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning eng muhim sharti va manbai bo‘lmog‘i kerak. O‘zbekistonda so‘nggi besh yil mobaynida investitsiyalarning yillik o‘sinh sur‘ati 9 foizdan ziyodni tashkil etmoqda va bu dunyodagi yuqori, barqaror ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida

global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bugungi murakkab sharoitda biz erishgan bu natijaning ahamiyati va mohiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Keyingi 10-yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3,2 barobar oshgan bo'lsa, shu davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 20 barobardan ziyod o'sgani e'tiborga sazovordir.

Strategik xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida mamlakatimizda investorlarning o'zi uchun ham, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun ham noyob kafolatlar tizimi yaratildi.

Avvalo, davlat tomonidan xorijiy investorlarning barcha huquqlari ta'minlanmoqda, ularning sarmoyalari, mamlakatimiz hududida ular tomonidan yaratilgan mulkning daxlsizligi kafolatlanmoqda, yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalarni kengaytirish va liberallashtirish

bo'yicha olib borilayotgan ishlar izchil davom ettirilmoqda.

“Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida”gi qonunga ko'ra, qonunchilik normalarining o'zgartirilishi investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirishga olib kelgan taqdirda chet ellik investorlarga nisbatan o'n yil mobaynida investitsiya kiritilgan sanada amal qilgan qonunchilik qo'llanadi.

Yana bir qulaylik tomoni shundaki, davlat boshqaruv organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan chet ellik

investorlarning huquqlarini kamsitadigan normativ hujjatlar qabul qilingan, shuningdek, chet ellik investorlarning xo‘jalik faoliyatiga g‘ayriqonuniy aralashishga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, bularning oqibatida yetkazilgan zarar sud orqali mazkur organlar tomonidan qoplanadi.

Mamlakatimizda chet ellik investorning O‘zbekistonda olgan daromadlarini qaytadan investitsiya sifatida kiritish bo‘yicha hech qanday cheklovlar yo‘q – chet ellik investorning daromadi, uning xohishiga ko‘ra, har qanday shaklda ishlatilishi mumkin.

Mazkur qonunga muvofiq, yurtimizda chet el investitsiyalari va xorijiy investorlarning boshqa aktivlari xalqaro huquqda qabul qilingan umumiy holatlarni (masalan, tabiiy ofatlar, falokatlar va boshqalarni) mustasno etganda, natsionalizatsiya qilinmasligiga yana bir bor e’tibor qaratish o‘rinlidir.

O‘zbekistonda 2012-yilda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada yaxshilashga yo‘naltirilgan bir qator qo‘shimcha muhim qonun hujjatlari va huquqiy normalar qabul qilindi.

Biz mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan investitsiya loyihalarini amalga oshirish yo‘lida zarur bo‘lgan barcha ishlab chiqarish infratuzilmalarini davlat mablag‘lari hisobidan ta’minlash prinsipini nafaqat qabul qildik, balki uni amalda joriy etmoqdamiz.

Biz qiymati 50 million dollardan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan aniq loyihalarning o‘z

muddatida amalga oshirilishini ta'minlaydigan infratuzilmani loyiha hujjatlari asosida o'z vaqtida qurish majburiyatini zimmamizga

olamiz. Surg'il koni negizida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyiha buning yaqqol dalilidir. Bu yerda umumiy qiymati 212 million dollarni tashkil etadigan tashqi muhandislik infratuzilmasini barpo etishni davlat o'z zimmasiga olgan. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi va "Angren" maxsus industrial zonasida yaratilgan sharoitlar ham bunga misol bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda yaratilgan ishbilarmonlik muhiti qulay investitsiyaviy

jozibadorlikning muhim tarkibiy qismi va omilidir.

O'zbekistonda Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga mos va mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish, arzonlashtirish va ularning ochiqqligini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks dastur qabul qilindi.

Bugungi kunda O'zbekistonda biznesni ro'yxatga olish jarayoni "bir darcha" tamoyili asosida atigi **ikki kun** ichida amalga oshiriladi va bu eng yaxshi xalqaro amaliyot talablariga to'la mosdir.

Mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etilgan bo'lib, bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish bilan bog'liq qonunchilikdagi bartaraf etib

bo'lmaydigan qarama-qarshilik va noaniqliklar tadbirkorlik sub'ekti foydasiga talqin qilinishi belgilab qo'yilgan.

Yurtimizda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar o'zining ilk natijalarini ko'rsatayotganini ta'kidlash joiz. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, 2012-yilda O'zbekiston biznesni yuritish bo'yicha reytingda 14 o'rin yuqoriga ko'tarildi.

Ayni paytda mazkur yo'nalishda yana ko'p ishlarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlash kerak. Mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhiti jahon tajribasida qabul qilingan biznesni yuritish mezonlariga qay darajada mos kelishini doimo kuzatib borishimiz va tegishli qarorlar qabul qilishimiz zarur. Vazirlar Mahkamasi bu ishga rahbarlik qilishi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bu masala bilan tizimli asosda shug'ullanishi maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Hech kimga sir emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012-yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

Umuman olganda, 2000-yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi.

2013-yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini oʻrtacha 23 foizdan kam boʻlmagan darajada oshirish, 2013-yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar koʻpaytirish vazifasi qoʻyilmoqda.

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi oʻzgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror oʻsib borayotgani alohida eʼtiborga molikdir.

Oʻtgan 2012-yilda ushbu koʻrsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan koʻpi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda.

Ana shu davrda aholining banklardagi omonatlari oʻsishi 34,6 foizni tashkil qildi, soʻnggi oʻn yilda esa 40 barobardan ziyod oshdi. 2012-yilda mamlakatimizdagi barcha investitsiyalarning 20 foizdan ortigʻini aholi investitsiyalari tashkil etgani, ayniqsa, eʼtiborlidir.

2012-yilda Buyuk Britaniyaning xalqaro miqyosda tan olingan Legatum instituti oʻzining Farovonlik va rivojlanish indeksida Oʻzbekistonni dunyo mamlakatlari orasida haqli ravishda 64-oʻringa kiritgani eʼtiborga loyiqdir.

Ijtimoiy farovonlik, jumladan, umr koʻrish davomiyligi, oilalarning tinchligi va osoyishtaligi, ishsizlik darajasining pastligi, ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish darajasi boʻyicha

ham O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘zgalar havas qiladigan o‘rinni mustahkam egallab turibdi.

4. Monetar siyosatni optimallashtirish usullari

Mamlakat monetar siyosatni olib borish natijasida pulning qadrini ta'minlab, uni iqtisodiyotning kuchli dastagiga aylantirish va pul muomalasini izga solish orqali iqtisodiyotni tartiblashga qaratadi. Haddan ziyod inflyatsiya natijasida iqtisodiy o'sish zaiflashadi. Shu bois davlat inflyatsiyani iloji boricha me'yoriy darajaga pasaytirishga qaratilgan siyosat olib borishi lozim. Inflyatsiyaga qarshi tadbirlar 2 yo'nalishda olib boriladi:

1. Ishlab chiqarishni o'stirish orqali Tovar va xizmatlarni ko'paytirish va shu yo'sinda pulni moddiy jihatdan ta'minlash;

2. Pul miqdorini keragidan ortiqcha bo'lishiga yo'l bermaslik uchun pul emissiyasi ustidan qattiq nazoratni o'rnatish, ya'ni ortiqcha pulni muomalaga chiqarmaslik.


Monetar siyosatni optimallashtirishga qaratilgan

Qayd etildiki, hisobot yilida Markaziy bankning Pul-kredit siyosati belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning bajarilishiga, davlatimiz rahbarining bank tizimini yanada isloh qilish, barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishga qaratilgan farmon va qarorlari, shuningdek 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi

choralar dasturida belgilangan vazifalarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashga qaratildi.

2012 yilda mamlakatimiz bank tizimining kapitallashuv darajasini oshirish, uning likvidligini yanada mustahkamlash, barqarorligini kuchaytirish borasida katta ishlar amalga oshirildi.


Bank tizimi ko'rsatkichlari nafaqat xalqaro umumqabul qilingan me'yorlarga javob beradi, balki ayrim yo'nalishlar bo'yicha undan ham yuqori baholarga erishdi.



Xususan, bugungi kunda bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi 24,3 foizni tashkil etadi va u xalqaro bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan talab (8 foiz)ga nisbatan 3 barobar yuqori bo'lib, 2013 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, banklar kapitali 6,2 trln. so'mdan oshib ketdi.

Bank barqarorligini baholash omillaridan biri - bank tizimining joriy likvidlik darajasi bir necha yildan buyon 65 foizdan yuqori bo'lib, belgilangan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir.

Bank aktivlari 2011 yilga nisbatan 30,2 foiz o'sib, 35,7 trln. so'mdan oshib ketdi.



Xalqaro standartlar asosida samarali bank nazoratining amalga oshirilishi, likvidlik va aktivlar sifati ustidan doimiy monitoring olib borilishi mamlakatimiz banklariga yetakchi xalqaro reyting agentliklarining ijobiy reyting baholarini olish imkoniyatini berdi. Buni 2012 yilning 29 avgustida «Moody's» xalqaro reyting agentligi tomonidan ketma-ket uch yil Ўzbekiston bank tizimiga “barqaror” reyting darajasini berilgani tasdiqlab turibdi. «Standard & Poor's» xalqaro reyting agentligi ham mamlakatimiz bank

tizimini ijobiy baholab, uning reytingini bir pog'ona yuqori ko'tardi. Shuningdek, Ўzbekiston bank tizimining barqaror rivojlanishi «Fitch Ratings» xalqaro reyting agentligi tomonidan ham e'tirof etildi.


Bugungi kunda, yetakchi xalqaro reyting agentliklari - «Fitch Ratings», «Moody's» va «Standard & Poor's»ning “barqaror” reyting bahosini olgan tijorat banklari soni 28 taga yetdi. Ularning jami aktivlari summasi mamlakat bank tizimi aktivlarining qariyb 100 foizini tashkil etadi.

Bank tizimi faoliyatiga tegishli barcha indikatorlarning, xususan “banklarning umumiy kapitali yetarliligi”, “tijorat banklari likvidligi”, “depozitlar hajmining dinamikasi”, “kredit qo'yilmalari hajmining o'zgarishi” indikatorlari 2012 yil yakuni bo'yicha “yuqori daraja”dagi baholarga muvofiq keldi.

Xalqaro valyuta fondi tahlillariga asosan Ўzbekistonda banklar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatish indikatorlari, jumladan bank xizmatlaridan foydalanish darajasi indikatorlari har 100 ming (katta yoshli) aholiga to'g'ri keladigan bank muassasalar soni 49,7 tani tashkil qilib, bu Mustaqil Xamdo'stlik Davlatlari ichidagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

Banklar 2012 yilda ham ustuvor vazifa etib belgilangan mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarini jadal rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Natijada o'tgan


yili iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar umumiy hajmi 2011 yilga nisbatan 30,5 foiz ko'paydi yoki ularning miqdori 20,4 trln. so'mga yetdi.



Ichki manbalar hisobidan berilgan kreditlarning tijorat banklari kredit portfeli umumiy miqdoridagi ulushi 85,8 foizini tashkil etdi. Muddati uch yildan ko'p bo'lgan uzoq muddatli kreditlar 30,9 foiz oshdi va jami kredit portfelining 76,8 foizini tashkil etdi.

Banklarning investitsiya maqsadlariga ajratilgan investitsion kreditlari miqdori ham 2011 yilga nisbatan 1,3 barobar ortib, shu yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, ularning miqdori 5,7 trln. so'mdan oshib ketdi.

Тижорат банкларидан олинган ажратилган инвестицион
кредитлар (трлн. со'м)




Hisobot yilida iqtisodiy nochor korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish borasida noan'anaviy yondashuv ishlari davom ettirildi. Natijada tijorat banklari balansiga qabul qilingan 168 ta iqtisodiy nochor korxonaning 120 tasi yangi strategik investorlarga sotildi. Ularni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga tijorat banklarining 395 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiyalari kiritilib, 25 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratildi.

Mazkur korxonalarda 1,7 trln. so'mga yaqin mahsulotlar ishlab chiqarildi, shundan 494,4 mln. AQSh dollaridan ortig'i eksport qilindi.

Davlatimiz rahbarining kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish borasida qabul qilingan farmon va qarorlarining ijrosini ta'minlash borasida keng ko'lamli chora-

tadbirlar amalga oshirildi. Kichik biznes subektlariga ajratilgan kreditlar hajmi 2011 yilga nisbatan 1,3 barobar oshib, shu yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 5,3 trln. so'mni tashkil etdi.



Jumladan, mikrokreditlar hajmi 1,2 trln. so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich ham 2011 yilga nisbatan 1,5 barobar oshdi.

Tijorat banklari tomonidan 2012 yilda xalqaro moliya institutlarining 181,7 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit liniyalari o'zlashtirildi. Ushbu ko'rsatkich ham 2011 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobar ortiqdir.



Tijorat banklarining investitsion faolliyatini kuchaytirish va kichik biznes sub`ektlarini kreditlash hajmlarini kengaytirish maqsadida banklarning resurs bazasini oshirish borasida izchil ishlar davom ettirildi. Natijada banklarning jami depozitlari miqdori 2011 yilga nisbatan 31,5 foiz o'sib, bugungi kunda ularning miqdori 22,8 trln. so'mdan oshdi.

Xulosa

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tib bormoqda. Jamiyatda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari joriy qilinmoqda. Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi infratuzilma shakllantirilmoqda va birinchi navbatda bank tizimini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Brtboshimiz ta'kidlaganidek, banklar iqtisodiyot lokomotivlariga

aylanib bormoqda. Mamlakatimizda bank tizimini tobora takomillashib, xalqaro bank andozalariga moslasha borib, jahon bank tizimiga integrasiyalashib bormoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan qator banklar jahonning eng nufuzli moliyaviy tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Monetar siyosat - bu davlat siyosati bo'lib, davlat iqtisodiyotini amaldagi pul massasini tartibga solish yo'li bilan rivojlantirish va barqarorlashtirishdir. Milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bir qator muhim vazifalarni hal etadi. Ulardan eng asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- monetar siyosatni va valyutani boshqarish siyosatini shakllantirish, qabul qilish hamda amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasida hisb-kitoblarning samarali tizimini yaratish;
- Banklar faoliyatini tartibga solish va banklarni nazorat qilish;
- O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin-valyuta zahirasini saqlash va uni boshqarish;
- Moliya vazirligi bilan birgalikda davlat byudjetining kassa ijrosini uyushtirish.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining asosiy yo'nalishlari, pul massasi o'zgarishining aniq maqsadli ko'rsatkichlari va pul muomilasini tartibga solish vositalari qonunning 4-qismida yoritilgan bo'lib, unda Markaziy bankning

pul-kredit operatsiyalari belgilab berilgan. Pul-kredit siyosatining strategic maqsadlari Joriy va kelajakka bo'linadi.

Joriy maqsadlar milliy valyuta kursining barqarorligini, milliy foiz stavkalari darajasi, moulamadagi pul massasi hajmi va moliya tizimining barqarorlik ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Kelajakdagi maqsadlar esa narxlar barqarorligini, iqtisodiy o'sish, yuqori darajadagi bandlik kabi ko'rsatkichlarni ifodalaydi.

Bu ko'rsatkichlarni samarali natijalarini yuqoridagi misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimovning 2012 –yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan monetar siyosatni yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi. www.wcbu.uz

2. I.A.Karimov. JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI, O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI VA CHORALARI. Toshkent 2009 yil

3. Sh.Abdullayeva. Bank ishi darslik. Toshkent 2003 yil

4. Z.Niyozov, A.Karimova. Bank-moliya faoliyatiga doir 555 ta atamalar izohli lug'ati. Samarqand 2009 yil.

5. Z.Yo'ldoshev Milliy iqtisodiyot o'quv qo'llanma Toshkent 2011